OILA-MAKTAB-MAHALLA HAMKORLIGI – QIZLARNI TA’LIM OLISHGA YO’NALTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Erkaboyeva Nigora Shermatovna
Qo'qon davlat universiteti, Pedagogika va psixologiya fakulteti dekani,
pedagogika fanlari doktori, professor

Bugungi kunda yurtimizda ta’lim va ilm-fanga, ayniqsa, yoshlarni zamonaviy bilim olishi va o’z salohiyatini namoyon etishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Oliygohlarda o’qish uchun qulay sharoiylarni yaratish natijasida O’zbekistonda bugungi kunda talabalar soni 1 million 600 ming nafarga yetdi. Shu o’rinda muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning O’zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 35-yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimida so’zlagan nutqlarida “Talabalarning yarmidin ko’pini xotin-qizlar tashkil etayotgani – Uchinchi Renessansning o’ziga xos qiyofasi desak bo’ladi. Chunki, bilimli qizlar - bilimli oila, bilimli avlod va ma’rifatli jamiyat deganidir”, deb bejiz aytmadilar.

Xotin qizlarni ta’limga yo’naltirish nafaqat ta’lim muassasasining balki oila va mahallaning maqsadli hamkorligida amalga oshirishiga bog’liqdir.

Pedagogik hamkorlik oila, mahalla, maktabning birgalikdagi faoliyati asosida o‘quvchi qizlarning ta’lim olishga bo‘lgan kuchli qiziqishini, istak va xohishini, ya’ni jamiyatning shaxs tarbiyasiga doir muhim davlat siyosatidagi ustuvor vazifalarini bajarishiga xizmat qiladi.

Ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiya o‘quvchilik davrining birinchi yillaridan boshlanadi. Bunda oila a’zolari o‘rtasida o‘zaro uyg‘unlik va barqarorlikni saqlash, hamkorlikka erishish uchun psixologik va pedagogik ta’sir ko‘rsatishni qamrab oladi. Tizimli-faoliyatli, aksiologik, shaxsiy-faoliyatli, genderli va kompetentli yondashuvlar o‘quvchi qizlarning ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishda oila, mahalla, maktab hamkorligi konsepsiyasini yaratishda metodologik yo‘nalish hisoblanadi. Globallashuv jarayoni, raqamli transformatsiya hamda ijtimoiy munosabatlarning tobora murakkablashib borishi sharoitida motivatsiya faqat shaxsning ichki psixologik

holati sifatida emas, balki ijtimoiy-pedagogik boshqaruvning muhim obyekti sifatida ham qaralmoqda. Shu sababli uni rivojlantirish va mustahkamlash ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasi zamonaviy jamiyat sharoitida shaxsning har tomonlama rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


O‘quvchi qizlarning ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishda oila, mahalla, maktab hamkorligi haqida so‘z ketganda, mahallaning o‘rni va ta’siri xususida to‘xtalish zarur. Ma’lumki, o‘zbek mahallalari azaldan chinakam milliy qadriyatlar maskani bo‘lib kelgan. O‘zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to‘y-tomosha, hashar va ma’rakalarni ko‘pchilik bilan bamaslahat o‘tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo‘lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an’analar, avvalambor, mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Xalqimizga xos o‘zini o‘zi boshqaruv tizimining bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tili, balki dili, butun hayotida chuqur joy egallagani bejiz emas. Har qaysi xonadon, butun el-yurtdagi ma’naviy iqlim va vaziyatni anglamoqchi bo‘lgan kishi, bu boradagi haqiqiy manzaraning yorqin ifodasini avvalo mahalla hayotida xuddi oynadek yaqqol ko‘rish imkoniga ega bo‘ladi. O‘quvchi qizlarning ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishda oila, mahalla, maktab hamkorligi quyidagi yo‘nalishlardagi ishlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Oila, mahalla va maktab hamkorligi asosida o‘quvchi qizlarning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishning zamonaviy yondashuvlarini chuqur o‘rganish va ularni jamiyatning bugungi taraqqiyot darajasi hamda modernizatsiya jarayonlarini hisobga olgan holda amaliyotga tatbiq etish zarur.

Uzluksiz ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligi hamda ta’sirchanligini ta’minlashdir. Bunga erishish uchun esa kundalik ta’lim jarayoniga nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar va ota-onalar ham faol jalb qilinib, ularni mazkur jarayonga puxta tayyorlash zarur. Agar ushbu uchta muhim bo‘g‘in yagona maqsad yo‘lida hamkorlikda faoliyat yuritsa, har bir tomon o‘z vazifasini aniq anglab, mas’uliyat bilan bajarsa, ta’limning tarbiyaviy salohiyati yanada ortadi. Bunday yondashuv ko‘plab pedagoglar va ota-

onalar duch kelayotgan murakkab muammolarni samarali hal etishga yordam beradi. Shaxs kamoliga ta’sir etishga qodir barcha ijtimoiy institutlar, xususan, oila, ta’lim tizimi, jamiyat, davlatning chambarchas aloqasi zaruratini ta’kidlashimiz o‘rinlidir. Aynan oila barcha keyingi ta’lim uchun asos solishi kerak. Ota-onada bilim va ko‘nikmaning yo‘qligi bolaning ma’nan va ruhan kamol topishiga ongli ta’sir ko‘rsata olmaydi, ularning g‘amxo‘rliklari esa ko‘pincha tarbiyaning faqat jismoniy tomonini qamrab oladi, xolos.

Shu bois, nafaqat o‘quvchilar, balki ota-onalarni ham ta’lim oldirish maqsadida maktab, mahalla va oilaning o‘zaro hamkorligi masalasiga ham e’tibor qaratilishi lozim, oila va umumiy o‘rta ta’lim maktabi shaxsning individualligini rivojlantirishi, o‘sib kelayotgan avlodda ta’lim olishga nisbatan ijobiy mayllarni shakllantirishi shart.

O‘quvchi qizlarning ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishda oila, mahalla, maktab hamkorligi quyidagicha shakllanadi (1-rasm):



1-rasm. O’quvchilarni ta’lim olishga bo’lgan motivatsiyasini oshirishda oila-maktab-mahalla hamkorligining optimal tuzilmasi

O‘quvchi qizlarning ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishda oila, mahalla, maktab hamkorligini yanada kuchaytirish va uni yangi yo‘nalishlarda amalga oshirish mexanizmlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ma’naviy-ma’rifiy ishlar rejasini tizimli ravishda ishlab chiqish va unda O‘quvchi qizlarni qiziqtirgan muammolar, hayotiy istaklari, bandlik, bo‘sh vaqtni to‘g‘ri tashkil etish kabi muammolarni uzil-kesil hal qilish;

- o‘quvchi qizlarni ta’lim olishga undashda turli davra suhbatlari, uchrashuvlarni (ibratli xonadon, mehnat va urush faxriylari, yozuvchilar, ijodkorlar ishtirokida) doimiy ravishda uyushtirish;

- o‘quvchi qizlarning o‘zlashtirishi, davomati va tartib-intizomini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda maktab va mahalla hamkorligini davr talablari asosida takomillashtirish (“Ochiq eshiklar kuni”, “A’lo mamlakatning a’lo farzandi, bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi!”, “Shu aziz Vatan – barchamizniki” kabi mavzularda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etish);

- o‘quvchi qizlarning ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishda oila, mahalla, maktab hamkorligi asosida seminar-treninglar o‘tkazish;

- o‘quvchi qizlarning huquqiy ong va savodxonligini shakllantirishda turli tanlovlar, musobaqalar, intellektual o‘yinlar tashkil etish;

- o‘quvchi-yoshlar muammolarini o‘rganish maqsadida ijtimoiy tadqiqotlar o‘tkazish.

O‘quvchi qizlarda ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyani tarkib toptirishga oid tadqiqotlar mazkur hodisani rivojlantirish uchun alohida ahamiyatga ega. Bu jarayon 6-7 yoshdan 17-18 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchi qizlarning o‘quv-tarbiya faoliyatlarini qamrab oladi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida amalga oshiriladigan pedagogik jarayonni mazkur maqsadga yo‘naltirish o‘quvchi qizlarni aqliy jihatdan rivojlantirishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Mazkur holatlar o‘quvchi qizlarning ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish rivojlanish yosh davrlari xususiyatlari bilan bog‘liqligini ifodalaydi:

1) O‘quvchi qizlarda ta’lim olish mayllari umummadaniyatning o‘ziga xos jihatlari hamda axborotlarning mavzu doirasidagi yo‘nalishlarining ikkiyoqlama xarakteri orqali aniqlanadi. Bu o‘z navbatida birgalikdagi o‘quv faoliyati, mazkur faoliyat doirasida fikrlar va bilimlarni o‘zaro almashinishga tayanadi;


2) O‘quvchi qizlarning ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyasining o‘ziga xos jihati birinchi navbatda o‘quv jarayonidagi fikriy shakllanish, hayotiy maqsadlarni ishlab chiqish, axloq me’yorlari va xulq-atvor qoidalarini o‘zlashtirish qadriyatli yo‘nalishlarning shakllanishi asosida tashkil topadi;

3) ijtimoiy rivojlanish o‘quvchi qizlarning o‘z fikrlari, xatti-harakatlari, ko‘nikmalarini izchil tarzda namoyon qilishlarida o‘z ifodasini topadi;

4) O‘quvchi qizlarning ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyasi turli qadriyatlarning subyektiv mohiyatini ta’minlab, idrok va ijtimoiy tajribaning faollashuvini amalga oshiradi. Buning natijasida shaxs taraqqiyotida xulq-atvor va o‘ziga xos xususiyatlarning barqarorlashuviga erishiladi;

5) ta’lim jarayonida o‘quvchi qizlarning motivatsiyasi maqsadlar, ehtiyojlarni qamrab olib, ular o‘quvchining butun hayoti davomida shakllanadi va rivojlanadi.

Bunday holat o‘quvchi qizlarni bilimlar, bilish usullari, ularni o‘zlashtirish, o‘quv jarayoniga ongli munosabatda bo‘lish, intilish, mustaqil faoliyat ko‘rsatish, xulosalar chiqarish, bilimlarni tasniflash, savollar berish, materiallarni muhokama qilishga undaydi. Biroq bu bir turdagi holat emas. Biz o‘quvchi qizlarda ta’lim olish motivatsiyasining dinamik xarakterga ega ekanligini e’tirof etamiz. O‘quvchi qizlarning ta’lim olish motivatsiyasi darajasi hamda rivojlanish manbalarini ajratish uning tarkib topishiga imkon beradigan model qurilishini tahlil qilishga asos yaratadi. Bu esa motivatsiyaning shakllanganlik darajasini tashxislash, pedagogik prognozlash va pedagogik faoliyat maqsadlarini aniqlashga ko‘maklashadi. O‘quvchi qizlarning ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonlarga ta’sir etuvchi bir qator o‘ziga xos omillar mavjud. (2-rasm).



2-rasm. O‘quvchi qizlarning ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonlarga ta’sir etuvchi omillar.

O‘quvchi qizlarning ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish uchun turli shakl va mazmunga ega bo‘lgan vaziyatlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun har bir bosqichda muayyan vazifalar qo‘yilib, ularni yechish usullari belgilab berilishi kerak. Shuning uchun ham har bir bosqich aniq izchillikda loyihalashtiriladi. Buning natijasida aksariyat o‘quvchi qizlarda muayyan shaxsiy sifatlar hamda o‘quv mayllari tarkib topadi. Mazkur vaziyatlarning har biri o‘zida quyidagilarni mujassamlashtirishi kerak: axloqiy tanlovga ega bo‘lish; o‘z ixtiyori va dunyoqarashi doirasida mustaqil maqsadlar qo‘yish va unga erishish yo‘llarini belgilash; yechimlarni izlash va qarorlar qabul qilishda yaqinlarining o‘rnini belgilash; shaxsiy yutuqlaridan zavqlanish imkoniyatiga ega bo‘lish; o‘zining boshqalar uchun ahamiyatliligini his qilish; o‘z yutuqlarini mustaqil tahlil qilish va baholash ko‘nikmasiga ega bo‘lish; o‘zining oldingi qarashlaridan voz kechish va yangi qadriyatlarga amal qilish; o‘zi va boshqalarning mas’uliyatini anglab etish kabilar.

O‘quvchi qizlarning ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishda oila, mahalla, maktab hamkorligi jarayoni quyidagi ustuvor pedagogik tamoyillarga asoslanishi maqsadga muvofiqligi aniqlandi: motivatsiya nuqtayi nazaridan oilaga, uning an’analariga, urf-odatlarga, o‘quvchining hayot tarzi va ta’lim olishga nisbatan emotsional-qadriyatli munosabat; o‘quvchi shaxsini pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash; ota-onalar va farzandlarning o‘zaro munosabatida ahamiyatli qadriyat sifatida oilada tolerant ochiq muhit; muhabbat, hurmat va ezgulik asosida bolalarga hurmat va insoniy munosabat bilan uyg‘unlikda qattiqqo‘llikdan mohirona foydalanish; ta’lim olish muhitini yaratish va oilaviy

qadriyatli munosabatlarning imperativ asoslari sifatida oilada mehnatsevarlik koʻnikmalarini tarbiyalash singari tamoyillar asosida amalga oshirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz besh yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi https://president.uz/oz/lists/view/9544
2. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-87-sonli Farmoni.
4. Musurmonova O. Oila ma’naviyati – milliy g‘urur. – Toshkent: O‘qituvchi, 2000.
5. Abdiyeva G. "Oila, maktab va mahalla hamkorligida qizlar tarbiyasining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari" // Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar jurnali. – Toshkent, 2021. – №3.
6. Toshmurodova G. "Xotin-qizlar ta’limini rivojlantirishda mahalla va oila institutining o‘rni" // UzMU xabarlari. – Toshkent, 2023. – №2.